



**NAMANGAN DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**"PEDAGOGIK TA'LIM VA TARBIYA
TRANSFORMATSIYASIDA FUNDAMENTAL,
AMALIY VA INNOVATSION TADQIQOTLARNING
KONSEPTUAL ASOSLARI"**

**Respublika ilmiy-amaliy
anjumani dasturi**

62.	HILBERT SPACE OPTIMIZATION: A NOVEL QUANTUM ALGORITHMIC APPROACH TO SOLVING COMPLEX MATHEMATICAL SYSTEMS Alijonova Sevara, Shokirova Saidabonu	304
63.	PEDAGOGIK JARAYONDA DEONTOLOGIK QARASHLARNING AXAMIYATI Sultanova Adas	313
64.	O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA GRAMMATIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH Usmonova Zamira	318
65.	O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'RGATISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING SAMARADORLIGI Salisheva Zilola Ismailovna	321
66.	TOVARSHUNOSLIK EKSPERTIZASI BO'YICHA YANGI TADQIQOTLAP MILLIY VA XORIJIY AMALIYOTDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SIFATINI KOMPLEKC ANIQLASH EKSPERTIZASINING USLUBIY JIHATLARI Mansurova Sh.Z.	324
67.	СВОБОДА И КОНТРОЛЬ: ФИЛОСОФИЯ ОБЩЕСТВА МАССОВОГО НАДЗОРА Наубегуллаева Эльмира Танирбергеневна	331
68.	TALABALARNI INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA O'QUV VOSITALARI VA MENTORLIK TIZIMINING AHAMIYATI Umirova Nurjamal Jarkurganovna	335
69.	EKOLOGIK MIGRATSIYA ASPEKTLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI Saydaliyeva Lazzat Muxtarali qizi	338
70.	ОҚЫТУ ЖӘНЕ ПЕДАГОГИКАЛЫҚ ТӘЖІРИБЕНІ ҰЙЫМДАСТЫРУ ФОРМАЛАРЫ Атабаев Серикбай Сапарович	343

4. Safarova R.G'. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
5. Axliddinov R. Pedagogik mahorat asoslari. — Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2018.
6. Musaev U. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Ilm, 2021.
7. Saidaxmedov N. Ta'lim jarayonini optimallashtirish. — Toshkent: O'qituvchi, 2006.
8. Ma'murov B. Ta'limda metodik yondashuvlar. — Toshkent: TDPU, 2022.
9. Qurbonov Sh. Pedagogik yondashuvlar tahlili. — Toshkent: Ma'rifat, 2020.
10. Raxmatullayev S. Kasbiy ta'lim asoslari. — Qarshi: Nasaf, 2018.
11. Normurodov M. Ta'limda mentorlik tizimi. — Samarqand: SamDU, 2022.
12. Tursunov M. Ta'limda didaktik vositalardan samarali foydalanish. — Namangan: NDU, 2021.
13. Nasirov R. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar. — Andijon: ADU, 2020.

EKOLOGIK MIGRATSIYA ASPEKTLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI

Saydaliyeva Lazzat Muxtarali qizi

**Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Boshlang'ich talim fanlar nazariyasi va metodikasi kafedrası o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqola ekologik migratsiyaning ta'lim jarayoniga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Ekologik omillar, masalan, iqlim o'zgarishlari, tabiiy ofatlar va resurslarning kamayishi, odamlarni yangi hududlarga ko'chishga majbur qiladi. Bunday migratsiya jarayonlari ta'lim tizimida qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, jumladan, migrant talabalar uchun yangi muhitga moslashish, madaniy xilma-xillik va ta'lim sifatini ta'minlash. Maqolada ekologik migratsiyaning ta'lim jarayoniga ta'siri, shuningdek, pedagogik yondashuvlar va strategiyalarni ishlab chiqish orqali bu muammolarni hal qilish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Ekologik migratsiya, ekologik inqiroz, ta'lim jarayoni, iqlim o'zgarishlari, tabiiy ofatlar, madaniy xilma-xillik, pedagogik yondashuvlar, ijtimoiy integratsiya, migrant talabalar, ta'lim sifatini ta'minlash

Abstract: This article is devoted to studying the impact of ecological migration on the educational process. Ecological factors, such as climate change, natural disasters and resource depletion, force people to move to new areas. Such migration processes can create a number of problems in the education system, including the adaptation of migrant students to a new environment, ensuring cultural diversity and the quality of education. The article examines the impact of ecological migration on the educational process, as well as ways to solve these problems by developing pedagogical approaches and strategies.

Keywords: Ecological migration, ecological crisis, educational process, climate change, natural disasters, cultural diversity, pedagogical approaches, social integration, migrant students, ensuring the quality of education

Аннотация: Статья посвящена изучению влияния экологической миграции на образовательный процесс. Экологические факторы, такие как изменение климата, стихийные бедствия и истощение ресурсов, заставляют людей переезжать в новые районы. Такие миграционные процессы могут создавать ряд проблем в системе образования, включая адаптацию студентов-мигрантов к новой среде, обеспечение культурного разнообразия и качества образования. В статье рассматривается влияние экологической миграции на образовательный процесс, а также пути решения этих проблем путем разработки педагогических подходов и стратегий.

Ключевые слова: Экологическая миграция, экологический кризис, образовательный процесс, изменение климата, стихийные бедствия, культурное разнообразие, педагогические подходы, социальная интеграция, студенты-мигранты, обеспечение качества образования

Kirish: Bugungi kunda global muammolar ichida ekologik inqiroz insoniyat taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan muhim omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida "Inson qadri uchun" tamoyili, jamiyat va davlat tizimida esa "Inson-jamiyat-davlat" yondashuvi asosiy g'oya sifatida ilgari surilmoqda. Bu yondashuv yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mazmunida chuqur o'rin olgan bo'lib, ayniqsa, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash borasida tub burilishlarga yo'l ochmoqda. Pedagogik nuqtai nazardan, ekologik migratsiya jarayonlari ta'lim tizimida qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ekologik migratsiya va uning ta'lim jarayoniga ta'siri, nafaqat individual talabalarning, balki butun jamiyatning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimining bu jarayonlardagi roli, o'z navbatida, ekologik

muammolarni yechishda hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ajralmas unsur hisoblanadi.

“Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) 2021-yildagi hisobotlarida keltirilishicha, 2020-yilda 30 milliondan ortiq kishi iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar tufayli o'z uy-joylarini tark etishga majbur bo'lgan” [1]. Zilzilalar, toshqinlar, qurg'oqchilik kabi ekstremal tabiiy hodisalar insoniyatning yashash muhitiga bevosita ta'sir ko'rsatib, migratsiya oqimlarini shakllantiradi. Misol uchun, 2010-yilda Gaitida ro'y bergan halokatli zilzila 1,5 milliondan ortiq aholining vaqtinchalik boshpana izlashiga sabab bo'lgan. 2019-yilda Hindiston va Bangladeshda kuzatilgan kuchli musson yomg'irlari natijasida yuzaga kelgan toshqinlar 2 milliondan ziyod odamni ko'chirishga olib keldi. "Global Environmental Change" jurnalida 2019-yilda chop etilgan ilmiy maqolada ta'kidlanishicha, iqlim o'zgarishi tufayli kelajakda 200 millionga yaqin odam iqlim migratsiyasiga duch kelishi mumkin” [2]. Bu, o'z navbatida, ta'lim tizimi va qadriyatlarga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Migratsiya natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy o'zgarishlar, madaniy integratsiya masalalari va ta'lim olish imkoniyatlarining cheklanishi kabi muammolar insoniyatning oldida turgan jiddiy vazifalardir.

Tadqiqotchi Z. B. Jo'rayevning fikricha, “Ekologik migratsiya — bu shunchaki ko'chish emas, balki yashash va yashab qolish o'rtasidagi tanlovdir” [1]. Bu fikr, ekologik migratsiyaning faqatgina geografik joylashuvni o'zgartirishdan iborat emasligini, balki inson hayotining asosiy jihatlaridan biri — mavjudlik va hayot davomiyligini ta'minlash jarayoni ekanligini ta'kidlaydi. Ekologik muammolar, masalan, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning kamayishi, odamlarni o'z yashash joylarini tark etishga majbur qilmoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, insonlarning hayot sifati va sog'lig'iga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda ham bir qator ekologik muammolar, ayniqsa, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning kamayishi bilan bog'liq holda, ekologik migratsiyani kuchaytiruvchi omillardan biri sifatida tavsiflanadi. Ushbu muammolar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Suv tanqisligi: O'zbekistonning ko'plab hududlari suv resurslariga qaram. Amudaryo va Sirdaryo kabi asosiy daryolarning suvi kamayishi, qishloq xo'jaligida sug'orish uchun foydalanishning ortishi natijasida yuzaga kelmoqda. Suv tanqisligi esa aholi uchun yashash sharoitlarini og'irlashtiradi va odamlarni yangi joylarga ko'chishga majbur qiladi.

2. Iqlim o'zgarishi: O'zbekiston iqlim o'zgarishidan jiddiy ta'sir ko'rmoqda. Haroratning ko'tarilishi, yomg'irlar miqdorining o'zgarishi va qurg'oqchilik holatlari qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solmoqda. Bunday sharoitlar qishloq aholisi uchun yashash joylarini tark etishga sabab bo'ladi.

3. Cho'llanish: O'zbekistonning ko'plab mintaqalarida yerlarning cho'llanishi muammosi mavjud. Bu jarayon, asosan, noto'g'ri agrar amaliyotlar, suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish va iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelmoqda. Cho'llanish natijasida yerlar unumdorligini yo'qotadi va bu hududlarda yashovchi aholi uchun hayot qiyinlashadi, natijada migratsiya kuchayadi.

4. Havo ifloslanishi: Sanoat va transportdan kelib chiqadigan havo ifloslanishi ham O'zbekistonda muhim muammolardan biridir. Bu holat, aholi salomatligiga zarar yetkazib, odamlarni sog'lom yashash sharoitlari izlashga majbur qiladi.

5. Tabiiy resurslarning kamayishi: Xar bir mintaqaning tabiiy boyliklari, cheklangan. Ularning kamayishi iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi va aholini boshqa hududlarga ko'chishga undaydi.

Ushbu ekologik muammolar O'zbekistonda ekologik migratsiyani kuchaytiruvchi omillar sifatida ko'rilishi lozim. Aholi o'z yashash joylarida to'g'ri sharoitlar bo'lmasa, ular yangi imkoniyatlar izlash maqsadida boshqa hududlarga yoki mamlakatlarga ko'chishga majbur bo'lishadi.

Ekologik migratsiya va ekologik muammolar ta'lim tizimida bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Quyidagi omillarni ko'rsatish mumkin:

1. Ta'lim olish imkoniyatlarining cheklanishi: Ekologik muammolar, masalan, suv tanqisligi yoki yerlarning cho'llanishi, aholini ko'chirishga olib keladi. Bu esa ko'chayotgan aholi uchun yangi joylarda ta'lim olish imkoniyatlarini cheklaydi, chunki yangi maktablar va ta'lim muassasalariga kirish qiyinlashadi.

2. Maktablarning yopilishi: Qishloq joylarida ekologik muammolar tufayli aholi kamayishi maktablarning yopilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa o'quvchilar uchun ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kamaytiradi.

3. Ta'lim sifati pasayishi: Maktablar yopilganda yoki o'quvchilar kamaysa, ta'lim sifati pasayishi mumkin. O'qituvchilar soni kamayishi, resurslar yetishmasligi va sinflarda o'quvchilar sonining oshishi ta'lim sifatini salbiy ta'sir qiladi.

4. O'qituvchilarni yo'qotish: Ekologik migratsiya natijasida o'qituvchilar ham boshqa hududlarga ko'chishi mumkin. Bu esa ta'lim jarayonini zaiflashtiradi va yangi o'qituvchilarni jalb qilishda qiyinchiliklarga olib keladi.

5. Psixologik ta'sir: Ekologik migratsiya jarayoni bolalar va o'smirlarning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zgarishlarga moslashish, yangi muhitda ijtimoiy integratsiya qilish va o'qish jarayonida qiyinchiliklar ularning ta'lim olishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

6. Ta'lim dasturlarining moslashuvi: Ekologik muammolar sababli migratsiya jarayonida yangi hududlarda ta'lim dasturlari va tizimlari o'zgarishi mumkin. Bu esa o'quvchilarning oldingi bilimlarini qo'llashda qiyinchiliklarga olib keladi.

7. Iqtisodiy muammolar: Ekologik migratsiya ko'pincha iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy vaziyatning yomonlashishi ta'limga ajratiladigan mablag'larni kamaytirishi va ta'lim sifatini pasaytirishi mumkin.

Tadqiqotchi O. Rasulov ta'kidlaganidek, "Ekologik barqarorlik sharoitida ijtimoiy muhitning yaxshilanishi aholining majburiy ko'chish ehtimolini kamaytiradi, bu esa konstitutsiyaviy erkinliklar amalda ro'yobga chiqishini bildiradi" [2]. Bu fikr O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida insonning sog'lom va xavfsiz atrof-muhitga bo'lgan huquqi (49-modda) bilan hamohangdir. Jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish, shaharsozlik faoliyatida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash, ekologik monitoring tizimlarini rivojlantirish orqali fuqarolarning ekologik muammolarga nisbatan ongli munosabati kuchaymoqda. Bu esa insoniyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning nafaqat ijtimoiy, balki huquqiy-falsafiy ifodasidir. Falsafa doktori S. Yo'ldoshev bu borada shunday deydi: "Tabiat va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni anglash fuqarolik ongini, mas'uliyatli yashash tamoyillarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi" [3]. Xalqaro miqyosda esa Lester Braunning "Ekologik qochqin" atamasini ilk bor 1976-yilda kiritganini esga olsak, u o'z tadqiqotlarida shunday deydi: "Kelajakda suv taqchilligi, cho'llanish va iqlim o'zgarishi millionlab insonlarni o'z yurtini tark etishga majbur qiladi. Bular ekologik muhojirlarning yangi toifalarini vujudga keltiradi"[4]. Bu prognoz bugungi kunda Orolbo'yi hududida yuzaga kelgan migratsion oqimlarda o'z aksini topmoqda. Ekologik migratsiya esa bugungi kunda inson erkinligi, yashash huquqi va tabiat bilan uzviy aloqaning sinovi sifatida namoyon bo'lmoqda. Uni nafaqat tabiiy yoki iqtisodiy omil, balki inson va makon o'rtasidagi ontologik bog'liqlik sifatida ko'rish lozim. M. Merlo-Ponti ta'biri bilan aytganda, "inson makonda yashamaydi, balki makon bilan yashaydi" [5], degan g'oya bu boradagi falsafiy qarashlarni mustahkamlaydi.

Mamlakatimizda bu kabi holatlarni oldini olish uchundavlat miqyosida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda, xususan, Orolbo'yi mintaqasida amalga oshirilayotgan ekologik tiklash ishlari, xususan, 2018-yildan boshlab 1,8 million gektardan ortiq maydonda ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilgani, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar ko'magida "Yashil makon", "Qum bar'yerlari"41 kabi loyihalarning boshlanganligi ekologik migratsiya bosimini kamaytirishga xizmat qilmoqda [6]. Ushbu jarayon aholining o'z yashash hududida qolishiga rag'bat yaratmoqda va insonning o'z vatanida tinch, sog'lom va qulay hayot kechirish huquqini ta'minlashda muhim omilga aylanmoqda. Orolbo'yi hududida amalga oshirilayotgan ekologik tiklash ishlari, aholining yashash sharoitini yaxshilash, ekologik madaniyatni shakllantirish va konstitutsiyaviy kafolatlar ekologik migratsiyani kamaytirish va inson qadriyatlarini tiklashda muhim ahamiyatga ega.

Bu esa ekologik adolat sari intilishni, inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni huquqiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini yumshatish va migratsiyaga moslashish strategiyalarini amalga oshirish, shuningdek, ta'lim orqali yosh avlodni ekologik ongli qilib tarbiyalash orqali barqaror kelajakni ta'minlash jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda milliy qadriyatlar va madaniy merosning saqlanib qolishi, shuningdek, global muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Buning uchun ta'lim tizimida ekologik bilimlarni mujassam etuvchi dasturlarni joriy etish, madaniy integratsiyani qo'llab-quvvatlovchi innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish va jamiyatda ijtimoiy birdamlikni rivojlantirish zarurdir. Bu jarayonlar, o'z navbatida, insonlarning yurtiga bo'lgan munosabatini chuqurlashtiradi va global miqyosda yanada barqaror va beqaror vaziyatlarda yashashga qodir bo'lgan avlodni tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'rayev Z. B. Ekologik xavfsizlik va migratsiya masalalari. – Toshkent: Fan, 2023. – 150 b. – B. 83.
2. Rasulov B. T. Ekologik muammolar va ijtimoiy xavfsizlik. – Toshkent: Universitet, 2021. – 200 b. – B. 143.
3. Yo'ldoshev Q. X. Ekologiya va jamiyat: falsafiy yondashuvlar. – Toshkent: Akademya, 2020. – 176 b. – B. 88.
4. Brown L. Political ideologies: A reader and guide. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – 400 p. – P. 34.
5. Мерло-Понти М. Феноменология восприятия. – М.: Наука, 1999. – 512 с.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yilgi tahrir. – Rasmiy veb-sayt: <https://konstitutsiya.gov.uz/oz> (murojat qilingan sana: 08.05.2025).
7. Orol fojiasiga konstitutsiya darajasida e'tibor. Bu nimani o'zgartiradi? // Kun.uz. – 2022. – 21 oktabr. – URL: <https://kun.uz/07184999>

ОҚЫТУ ЖӘНЕ ПЕДАГОГИКАЛЫҚ ТӘЖІРИБЕНІ ҰЙЫМДАСТЫРУ ФОРМАЛАРЫ

Атабаев Серикбай Сапарович

atabaev_s507@gmail.com

АННОТАЦИЯ: Бұл мақалада оқыту мен педагогикалық тәжірибені ұйымдастырудың әртүрлі формалары қарастырылады. Әрбір форма білім беру